



Figurative and motivational foundations of comparative phraseological units

Manzura ISROILOVA¹

Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

ARTICLE INFO

Article history:

Received October 2025

Received in revised form 5
October 2025

Accepted 10 November 2025

Available online 25
November 2025

Keywords:

comparative phraseological
units,
figurative-motivational
foundations,
cognitive linguistics,
conceptual metaphor,
metaphor,
epithet,
semantic components,
connotation.

ABSTRACT

This topic focuses on the systematic study of the figurative and motivational foundations of comparative phraseological units, uncovering the mechanisms of their creation, identifying figurative elements (metaphors, epithets, formal markers) and types of motivation in this category of phraseological units, and modeling their generative mechanisms. Furthermore, it examines the general patterns of figurative and motivational semantic changes in phraseological units, emphasizing that figurative-motivational bases play a central role in the emergence and acquisition of comparative phraseological units.

2181-3701/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss10/S-pp8-13>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Komparativ frazeologik birliklarning obrazli-motivatsion asoslari

Kalit so'zlar:

komparativ frazeologik
birliklar,
Obrazli-motivatsion asoslar,
kognitiv lingvistika,
konseptual metafora,
metafora,
epitet, semantik
komponentlar,
konnotatsiya.

ANNOTATSIYA

Ushbu mavzu komparativ frazeologik birliklarning obrazli va motivatsion asoslarini tizimli o'rganish, ularning yaratilish mexanizmlarini ochib berish, shu turdagi frazeologizmlarning obrazli elementlarini (metafora, epiteta, rasmiy belgilar) va motivatsiya turlarini aniqlash, yaratuvchi mexanizmlarni modellash masalalariga e'tibor qaratiladi. Shuningdek, frazeologizmlarning obrazli va motivatsiyaga bog'liq semantik o'zgarishlar bo'yicha umumiy qonuniyatlarni o'rganilib, obrazli-motivatsion asoslar komparativ frazeologizmlarning yuzaga kelishi va o'zlashtirilishida markaziy rol o'ynashiga urg'u beriladi.

¹ PhD, Senior Lecturer, Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy. E-mail: manzurajamolovna@gmail.com

Образно-мотивационные основы компаративных фразеологических единиц

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

сопоставительные
фразеологические
единицы,
образно-мотивационные
основы,
когнитивная лингвистика,
концептуальная метафора,
метафора,
эпитет,
семантические
компоненты,
коннотация.

Данная тема посвящена системному изучению образно-мотивационной основы компаративных фразеологизмов, выявлению механизмов их образования, выявлению образных элементов (метафоры, эпитетов, формальных признаков) и типов мотивации данного типа фразеологизмов, моделированию механизмов образования. Также изучаются общие закономерности образно-мотивационной семантики фразеологизмов, подчеркивается центральная роль образно-мотивационной основы в возникновении и усвоении компаративных фразеологизмов.

KIRISH

Umuman barcha frazeologik birliklarda, xususan, komparativ frazeologik birliklarda ularning asosiy mezonlaridan biri hisoblangan motivatsiya tushunchasi uzoq tarixga ega. Frazeologik birliklar ma'nosining ravshanligi haqidagi fikr juda keng tarqalgan, ammo barcha frazeologizmlar shaffof semantik tuzilishga ega emas [1].

Komparativ frazeologik birliklarda komponent, aniqroq aytganda, tasvirning tashuvchisi, subyektga qarashli sifat standarti vazifasini bajaradi. Bunday komponentli iboralar millat ongiga tanish, ishlatilish doirasi aniq bo'lgan umumiy klishe sifatlarini in'ikos ettiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda motivatsion asosni o'rganish uchun *assotsiatsiya* tushunchasini ishlatish maqsadga muvofiq, zero ikki psixik hodisalar o'rtasida assotsiativ bog'lanish mavjud, ma'lum hodisaning inson ongida paydo bo'lishi tabiiy ravishda keyingi hodisaning ongda paydo bo'lishiga olib keladi. O'zaro assotsiatsiyalarning *ingerent* va *adgerent* turlari mavjud [5].

Ingerent, ya'ni ajralmas yoki bir tartibli assotsiativ bog'lanishlar so'z bilan belgilangan obyektning o'ziga xos xususiyatiga bog'liq va belgining o'zi bilan bir xil ontologik maqomga ega masalan, *le centre de la flamme* kabi.

Adgerent-chatishgan assotsiativ bog'lanishlar ongda assotsiativ aloqalarni begona sferaga (masalan, *souhairs lumineux et blancs*) o'zgartiruvchi ontologik harakat tufayli paydo bo'ladi. Assotsiatsiyalar bilan bog'liq bo'lgan konnotativ xususiyatlar ekspressivlik xususiyatga ega bo'lgan va belgilangan so'z uchun mos bo'lmagan xususiyatlarni aks ettirishi bilan ahamiyatli.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Asos va taqqoslash etalonni integral assotsiatsiyalar asosida tuzilgan komparativ frazeologik birliklar tarkibi har doim ham bir xil emas. Etalon bilan bog'lanish darajasiga ko'ra, komparativ frazeologizmlarni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

I. Asos etalonning tan olingan tabiiy xususiyati hisoblanadi. Uning namoyon bo'lishi majburiydir. Bu yerda ikkita mumkin bo'lgan holatlar mavjud:

1) taqqoslash asosi etalonning ajralmas xususiyati sifatida ko'rib chiqiladi va uning ta'rifi lug'at orqali izohlanadi;

2) taqqoslash asosi etalon sifatida ishlaydigan leksik birlik lug'at izohida aks ettirilmaydi, shunga qaramay uning xususiyatlaridan biridir.

II. Asos etalonning tabiiy xususiyatlariga zid emas, lekin uning namoyon bo'lishi shart ham emas. Bu yerda ham ikkita mumkin bo'lgan holatlar mavjud:

1) asos etalonning til umumiyliги sifatida qaralib, uning izohi/belgisi asosida shakllanadi, ya'ni, uning semantikasiga zid kelmaydi;

2) asos etalonning tabiiy xususiyati emas, lekin u muayyan, zarur sharoitlarda uning xos omili sifatida ahamiyatli bo'lishi mumkin.

Quyida yuqoridagi frazeologik birliklar guruhlarining har birini misollar yordamida alohida ko'rib chiqamiz. Dastlab integral assotsiatsiyalar asosida tuzilgan komparativ frazeologik birliklarga (I.1.) e'tiborimizni qaratamiz:

1-jadval.

Komparativ xususiyatli frazeologik birliklar	Komparativ xususiyatli FBlar etalonining [PR] lug'atdagi izohi
claire comme <i>le jour</i> [ARSC :180]	Source de <i>lumière</i> naturelle, <i>clarté</i> qui permet de voir.
être gros comme <i>une baleine</i> [ARSC :50]	Mammifère cétacé de <i>très grande taille</i> (jusqu'à 20 m de long), dont la bouche est garnie de lames cornées (les fanons).
fumer comme <i>une pompier</i> [ARSC :651]	1. Personne appartenant au corps des sapeurs-pompiers, chargé de combattre incendies et sinistres.
maigre comme <i>un clou</i> [ARSC :521]	<i>Petite tige de métal à pointe</i> , souvent à tête, qui sert à fixer, assembler, suspendre.
Jaune comme de <i>la cire</i> [ARSC :179] (<i>très jaune</i>)	Matière molle, <i>jaunâtre</i> , produite par les abeilles.
Jaune comme <i>un citron</i> [ARSC :450]	Fruit <i>jaune</i> du <i>citronnier</i> , agrume de saveur acide.
trempe comme <i>une soupe</i> [ARSC :734]	1. Tranche de pain <i>arrosée de bouillon</i> . 2. Potage ou bouillon épaissi.
amer comme <i>chicotin</i> [ARSC :186]	Suc très <i>amer</i> d'un aloès.
détaler comme <i>un lièvre</i> [ARSC :476]	Mammifère rongeur voisin du lapin, à <i>l'allure très rapide</i> , et qui vit en liberté.
dormir comme <i>un loir</i> [ARSC :290]	Petit mammifère rongeur, <i>hibernant</i> , à poil gris et à queue touffue.
franc comme <i>l'or</i> [ARSC :607]	Métal <i>précieux</i> jaune, brillant, <i>inaltérable et inoxydable</i>
glisser comme <i>une anguille</i> [ARSC :25]	Poisson d'eau douce de forme très allongée, à <i>peau visqueuse et glissante</i> , qui vit en eau douce et se reproduit en mer.

Keyingi jadvaldagi komparativ frazeologik birliklarda asos etalonning ajralmas xususiyatini ifodalaydi, lekin *etalonning lug'at ta'rifida asos ko'rsatkichi mavjud emas*. Integral assotsiatsiyalar asosida tuzilgan komparativ frazeologik birliklar(I.2)ga misollar:

2-jadval.

Komparativ xususiyatli FB lar	KFB etalonining lug'atdagi izohi	KFB belgisining lug'atdagi izohi
doux/tendre comme <i>une agneau</i> [ARSC :16]	Petit de la brebis.	très doux
malin comme <i>un singe</i> [ARSC :523]	Mammifère (primate) à face nue, au cerveau développé, aux membres préhensiles à cinq doigts.	astucieux, futé
Mou comme <i>un chiffre</i> [ARSC :172]	Chacun des caractères qui représentent les nombres. Nombre représenté par les chiffres	absolument muet
Saoul comme <i>un âne</i> [ARSC :22]	Mammifère domestique (<i>équidé</i>), plus petit que le cheval, à longues oreilles, à robe généralement grise	Complètement saoul
Bête comme <i>une veau rouge</i> [ARSC : 22]	Petit de la vache, mâle ou femelle, pendant sa première année.	méchant, médiocre
Gueler (beugler...) comme <i>un âne</i> [ARSC : 23]	Mammifère domestique (<i>équidé</i>), plus petit que le cheval, à longues oreilles, à robe généralement grise.	crier, hurler
Chanter, parler comme un(les) <i>ange(s)</i> [ARSC : 24]	Être spirituel, intermédiaire entre Dieu et l'homme, messenger des volontés divines.	à la perfection, calme, patient

Shunday qilib, ushbu guruhga tegishli komparativ frazeologizmlar ko'p hollarda etalonlarining jismoniy xususiyatlari: rangi, og'irligi, qattiqlik kabilarni namoyon qilish ko'rsatkichiga ega. Shuni ta'kidlash kerakki, asosning o'ziga xos xususiyatlariga asoslangan komparativ frazeologizmlar ko'p emas. Ko'rinib turibdiki, asos etalon bilan bog'liq bo'lgan ikkinchi guruhning komparativ frazeologizmlari ustunlik qiladi, ya'ni etalon ko'rsatilgan xususiyatning maksimal namoyon bo'lish darajasiga ega ekanligi e'tirof etiladi, ammo bunday chatishish subyektivdir. Bu xususiyat ehtimoliy bo'lib, etalon har doim ham bunday hukmga egalik qilolmaydi.

Muvofiq assotsiatsiyalar asosida tuzilgan frazeologik birliklar taqqoslash asosida ifodalangan atribut standart ifodasiga semantik jihatdan mos kelmaydigan taqqoslashni o'z ichiga oladi, har qanday holatdagi standart ushbu xususiyatga ega bo'lishi mumkin emas. Tuzilishiga ko'ra struktur-semantik prinsipi chatishma komparativ frazeologik birliklarning kichik, keng tarqalgan quyidagi guruhlarini sanab o'tish lozim. Masalan :

- tirik mavjudotning xususiyati aksariyat hollarda odamga yoki jonsiz narsaga o'tkaziladi (*fort comme un bœuf-tres vigoureux, avec un idee de calm, est reste tres vivant* [ARSC : 80]);

- faqat insonga xos xususiyat va harakat hayvonlarga ko'chiriladi (*saoul comme un âne-complètement saoul-* [ARSC : 22]);

- o'xshatish predmeti, shaxs, vaziyat kabilarga ma'lum predmetning tashqi o'xshashligi ko'chiriladi (*rouge comme une cerise-rouge de confusion de plaisir, etc-* [ARSC :39]);

- o'zi ega bo'lgan standartga qarshi, zid xususiyatni ifodalashi, antifrazani hosil qilishi mumkin (*haut comme une botte-tout petit-* [ARSC :91];

- o'zak jihatidan o'xshatish asosining asl va ko'chma ma'no qarama-qarshiligiga qurilgan o'xshatish, ironiya (*camarad, amis comme cochons-très amis* [ARSC :187; *soûl comme un Anglais-ivre*].

Komparativ frazeologizmlarni guruhlarga ajratib tahlil qilish orqali ularning ma'nosi asosan shaxs va uning xatti-harakatlari, fazilatlarini mavhum, shu bilan birga aniq tavsiflashini ko'rishimiz mumkin.

Mazkur ishda lug'atlarda qayd etilgan komparativ frazeologik birliklar orasida kam sonlilari haqiqiy etalon xossasini KFB tarkibida ifodalaydi. Bu obyektivdir, chunki taqqoslashda ko'rsatilgan sifat leksik birlik obyektining doimiy xususiyatidir. Shuning uchun frazeologizmning semantikasi shaffof, ya'ni o'zgaruvchi so'z birikmasi-tarkibiy so'zlarning ma'nolaridan hosil bo'ladi [2]. Fransuz tilining ko'plab komparativ frazeologizmlari motivning yetishmasligi va mavhumligi bilan ajralib turadi. Mavhumlik frazeologik birliklarning ekspressivlik manbai bo'lib xizmat qilishi mumkin. Komparativ frazemalarning asosi ifodaning kuchayishi yoki aksincha susayishiga ta'sir ko'rsata oladi. Ayni bir KFBning asosi u ifodalayotgan obyektning rang xususiyatiga o'xshash, mos bo'lsa, semantik jihatdan muvofiq bo'lsa, unda ifoda susayishi kuzatiladi. Agar KFB ma'nosiga ko'ra, tushunarsiz sintaktik-strukturaviy shaklda bo'lsa, bu vaziyatda uning ifodasi kuchayish hollarini kuzatish mumkin. Masalan : *blanc comme un linge, bête comme chou* kabi.

Demak, tasvir, obraz ma'noning konseptual o'zagi bilan mos kelmagan vaziyatda eng aniq xususiyatga ega bo'ladi. Barcha KFBlarni ingerent va adgerent assotsiativ aloqalar nuqtayi nazaridan ko'rib chiqish mumkin emas. Komparativ frazeologik birliklar borki, ularda assotsiativ bog'lanish xususiyatini ko'rsatish mushkul [2], ya'ni ko'p hollarda ular qisqartirilgan, yaxlitlangan, ixchamlashtirilgan shaklda o'xshatish obyektini vazifasini bajaruvchi izoh, olmosh, ravish, son kabilar bilan ifodalanishi mumkin. Masalan, *comme avant-comme s'il n'y avait aucun problem, sans s'en préoccuper* (avvalgidek, muammosiz) [ARSC:40], *faire comme si de rien n'était*-ne manifester volontairement aucune réaction ; être indifférent ; prendre un air indifférent ; avoir attention à ne rien dire qui puisse donner à connaître ce que l'on pense (o'zini hech narsa bo'lmaganday ko'rsatish) *comme un rien*-facilement (arzimagan narsa kabi); *comme ci comme ça* -couci-couça ; ni bien ni mal; moyennement(bir navi) [ARSC:200], *un coeur gros comme ça* - "mehribon, saxovatli yurak" (so'zma-so'z shunchalar katta yurak) [ARSC: 421]; *comme par hazard*-ben voyons, bah dis donc, tiens donc; *comme en 40* yoki *comme en 14*.

XULOSA

Yuqorida tahlil qilingan komparativ frazeologik birliklar obyektning assotsiativ bog'lanishlari va qiyoslash asosida tanlab olingan guruhlari va kichik guruhlari frazeologik ma'noning turli darajadagi mavhum holatlarini namoyon etadi.

Frazeologizmlar mavhumligining *eng yuqori, yuqori, o'rta va past* darajalari tasniflangan [2]. Mavhumlik darajalari frazeologik birliklarning motivatsiyasi bilan taqqoslanganda ular o'rtasida teskari munosabat mavjud. Motivsiz frazeologik birliklarda abstraksiyaning eng yuqori darajasi kuzatiladi, ularning ichki shakli tan olinmaydi. Abstraksiyaning yuqori darajasida frazeologik birliklarning so'z-komponentlarining ma'nosi butunlay qayta ko'rib chiqiladi. Frazeologik ma'noning ikki mezon mavjud, chunki frazeologik birliklar ma'nosi va uning prototipi ma'nosi o'rtasidagi bog'liqlik doimiydir. Komparativ frazeologik birliklarda abstraksiyaning zaiflashuvi uning barcha komponentlari so'zma-so'z ma'noga ega ekanligi bilan tavsiflanadi.

Komparativ frazeologik birliklarda o'xshatish asosi odatda to'g'ridan to'g'ri ma'noda qo'llaniladi va o'xshatish obyektini xossalarini ifoda etadi, shuning uchun asosan o'rta darajali KFB abstraksiyasiga ko'proq e'tibor qaratish lozim. KFB abstraksiyasi o'rta darajasining ikki turi mavjud. Birinchisi motivlashgan turi ingerent assotsiativ

bog'lanishlar (*noir comme de la suie, chauve comme un genou, chanter comme une casserole, gai comme un pinson, être attendu comme le Messie*,) asosida qurilgan komparativ frazeologizm hamda asos va taqqoslash obyektining adgerent assotsiativ aloqaga ega bo'lgan motivsiz frazeologik birliklari, jumladan, *malheureux comme une pierre, bête comme ses pieds, gros comme une maison* kabilar kiradi.

Komparativ frazeologik birliklar genetik jihatdan soxta taqqoslashda (assotsiativ bog'lanishning bog'liq turi) yuqori darajada abstraksiyaga ega. Bunday (*masalan : muet comme une tranche, une carp*) iboralarda solishtirishning obykti ham, asosi ham qayta ko'rib chiqiladi, lekin prototipning ma'nosi frazeologik birlik ma'nosi orqali izohlanayotgandek ko'rinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Буянова Ю. В. Прагматический аспект значения компаративных фразеологических единиц (на материале современного французского языка). 2021.
2. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. Учеб.пособие. Дубна: 2005, 188-194 с.
3. Mortureux M.F. Les stéréotypes en français : proverbes et autres formules. P.: 1999, OPHRYS, 172 p.
4. Маматов А. Лексик интеграция асосида фразеологизмларнинг шаклланиши. Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1999. №6. –29-33 бетлар.
5. Маматов А. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари: Филол.фан.д-ри.дисс...автореф. –Тошкент, 2000. – 56 б.
6. Телия В.Н. Экспрессивность как проявление субъективного фактора в языке и ее прагматическая ориентация. Человеческий фактор в языке. Языковые механизмы экспрессивности. М: 1991, Наука, с.5-36
7. Исраилова, М. (2023). Bosma nashrlarda frazeologik birliklarning leksik-semantik transformatsiyasi. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences, 3(2), 152-156. <https://doi.org/10.47390/1342V3I2Y2023N20>
8. Jamolovna, I. M. (2023). Fransuz tili idiomalari haqida. Research Focus, 2(1), 605-607. <https://doi.org/10.5281/zenodo>
9. Le Petit Robert. Dictionnaire alphabétique et analogique de la langue française /Sous la direction de J.Rey-Debove, A.Rey. – P.: Dictionnaires Le Robert, 2017. – 2838 p.